

TA’LIM JARAYONIDA TARBİYANING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

ADPI katta o’qituvchisi O‘.Vaxabova
Sirtqi bo’lim MT yo’nalishi 105- guruh talabasi
Sohobova Oyshabonu.

Annotatsiya: Maqolada tarbiya haqida tushuncha, tarbiyaning asosiy turlari, shaxs shakllanishida tarbiyaning o’rni va oilada mehnat tarbiyasi, kichik yoshdagi bolalarda tarbiyaning o’ziga xosliklari, tarbiya tog’risida fikrlar haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: tarbiya, tarbiyali bo’lish, metod, kognitiv tarbiya, psixoterapiya, psixokorreksiya, psixoanaliz, xulq atvorli bo’lish, tarbiya ehtiyojlari.

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” (Abdulla Avloniy).

Ta’lim jarayonida tarbiya –ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o’qituvchining o’quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o’zaro amaliy va nazariy muloqotdir. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi, ya’ni pedagog tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

Pedagogik psixologiyada tarbiya tushunchasi –shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarning ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy aktiv ishtirok etishga qaratilgan barcha ta’sirlar majmui. Tarbiya bu alohida jarayon emas, balki o’qitishning bir tomoni bo’lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga ega. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko’nikma olish mexanizmining o’ziga xos jihatlarini kiritish mumkin. Tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan psixologiyadan tashqari falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlari shug’ullanadi.

Tarbiyaning asosiy turlari oiladagi tarbiya va ijtimoiy tarbiyadir. Tarbiya ijtimoiy hayotning muhim funksiyasidir. Tarbiya shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy, jismoniy kamolotida yetakchi rol o’ynaydi.

Oila tarbiyasi –oilada ota-onalar, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Oila qanchalik tartibli bo’lsa bolaning shunchalik muvaffaqiyatli bo’lishiga asos bo’ladi.

Ma’lumki, shaxsning rivojlanganlik darajasini ta’minlovchi asoslar dastlab oilada yaratiladi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek “Bola tug’ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi”.

Oilada mehnat tarbiyasi bolalarni uy yumushiga jalb etishdan boshlanadi. Bolaning ilk mehnat tajribasi kelgusida uning mehnat faoliyati samarali bo’lishiga asos bo’ladi. Tarbiyaning bosh vazifasi- jamiyat hayotida zarur bo’lgan kerakli sifatlarni o’zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Tarbiya jarayonida doimiy va o’zgarmas maqsad qo’yilmaydi, chunki o’zgarmas maqsad har qanday jamiyatga ham mos bo’lavermaydi. Tarbiyali bo’lish—bu xulq- atvorini nazorat qilishdan iborat. Bunday nazorat insonga yomon xatti- harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq- atvorini axloqiyliigi haqida qayg’ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo’ladi.

Tarbiya vositalari sifatida tashkil etilgan va etilmagan ta’sirlar tushuniladi. Ular yordamida bir guruh insonlar—tarbiyachilar boshqa guruh odamlariga – tarbiyalanuvchilarga ma’lum psixologik sifatlarni va xulq-atvor hosil qilish maqsadida

ta’sir o’tkazadilar. Aniq qilib aytganda, shaxsga psixologik ta’sir vositasida tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchining shaxsiyatini o’zgartirish uchun qo’llanilgan harakatlar tushuniladi. Tarbiya vositalari sifatida o’ziga xos o’rinni kompleks, global va har taraflama o’tkaziladigan ta’sirlar egallaydi. Ular qatoriga, masalan, psixoterapiyani, ijtimoiy-psixologik treningni va boshqa psixokorreksiya turlarini ko’rsatish mumkin.

So’ngi paytlarda shaxsga psixoterapevtik va psixokorreksion ta’sir vositalarini, uslublarini qo’llash keng tarqalgan. Psixoterapiya pedagogik psixologiyaning bir bo’limi emas, balki to’la psixogen tabiatga ega bo’lgan, insonning psixologik holatiga bog’liq kasalliklarni davolash yoki ularni oldini olish vositasi deb tushunilgan. Psixokorreksion uslublarni qo’llash deb, psixolog-psixoterapevt va mijoz muloqotiga aytiladi. Kognitiv tarbiya ta’siri kishining bilim tizimlariga yo’naltirilgan bo’lib uni o’zgartirish mukammallashtirishni maqsad qilib qo’yadi. “Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga ilmga va mashqqa” - degan edi ulug’ olim Arastu. Ana shu g’oyalarga asoslangan holda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozim;

- tarbiyada ulg’ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish;
- milliylikning o’ziga xos an’ana vositalariga tayanish, jahon madaniyatining ilg’or tajribalariga asoslanish;
- ulg’ayayotgan inson faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish;
- qiziqarli, to’laqonli ulg’ayayotgan inson yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish.

Bolaning oiladagi tarbiyasida ota-onaning obro’si muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining o’zlariga xos psixologik xususiyatlarini yaxshi bilib olishlari zarur. Kichik yoshdagi bolalar maktab ostonasiga oyoq bosishlari bilan o’yin faoliyati o’sib o’tadi. O’qituvchi bilan notanish bolalar bilan muomila qilish ular uchun noqulay vaziyatni vujudga keltiradi. Bolalarga oilada talab bir xil bo’lishi yaxshi natija beradi. Ularga noto’g’ri yoki qalbaki ma’lumotlar berishdan saqlanish ma’qul. Bolaga yolg’on javob berish orqali ota-onaning farzand oldida obro’si pasayadi. Bolalar tasavvurida boshlang’ich boshlang’ich sinf o’qituvchisi donishmand, bilimdon sifatida namoyon bo’ladi. Kichik yoshdagi bolalar tarbiyaga beriluvchan hamda kishilarga ishonuvchan bo’ladilar. Ota-onalar ularning bu xususiyatlarini e’tiborga olgan holda munosabatta bo’lsalar oilada totuvlik qaror topadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yoshlar tarbiyasi - eng muhim masalalardan biridir. Ota-onalar va biz tarbiyachilar kelajakda tarbiyali yosh avlodni tarbiya qilishda asosiy rol o’ynaymiz. Shunday ekan barchamiz tarbiya masalasiga mas’uliyat bilan yondashmog’imiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi; Toshkent, 1999, 127-147-betlar.
2. Ivanov. I., Zufarova M., “Umumiy psixologiya”. O’z. FMJ., 2008.
3. Safayev N.S, Mirashirova N.A, Odilova N.G., “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”. -T; Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
4. Xaydarov F.I, Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.; “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi; 2009.
5. V.A. Kruteskiy Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent, 1976, 223-240-betlar.
6. ВАХАБОВА, Ў. (2023). ТУРЛИ ПСИХОДИАГНОСТИК МЕТОДИКАЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 134-138.